

**ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" ROMANI ORQALI
HAYOTDA MUVOZANATGA ERISHISH**

G‘ayratova E’zoza Akmaljon qizi

*Guliston davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili
yo ‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug`bek Hamdamning “Muvozanat” romani orqali hayotgda muvozanatga erishish haqida fikrlar ko`rib chiqildi.

Аннотация: В данной статье в романе Улугбека Хамдама «Равновесие» рассматриваются идеи достижения баланса в жизни.

Abstract: This article in Ulugbek Hamdam’s novel “Balance” examines the ideas of achieving balance in life.

Kalit so‘zlar: “Muvozanat”, roman, asos, tahlil, inson ruhiyati, jamiyat, hayot, surat, siyrat

Ключевые слова: «Равновесие», роман, основа, анализ, человеческая психика, общество, жизнь, фотография, поэзия.

Key words: “Balance”, novel, basis, analysis, human psyche, society, life, photography, poetry.

Ruhni ham, jismni ham ozuqasiz qoldirib bo‘lmaydi. Insonda umumiy ikki katta ehtiyoj mavjud. Bular – ma’naviy va moddiy ehtiyoj. Har ikkisining o‘rni, darajasi va ahamiyati hammamizning hayotimizda katta rol o‘ynaydi. Ba’zan moddiyat ketidan quvib, tirikchilik dardida yurib o‘zimizda ma’naviy bo‘shliq paydo qilib qo‘yamiz. Bu tomondan uzilib qolamiz. Aksi holatda esa ruhiy quvvatimiz bo‘lmish ma’naviy ozuqaga sho‘ng‘ib ketib, moddiy tomondan oqsaymiz. Bu ehtiyojlar ipi uchlarini tutashtirish kishidan katta mehnat talab qiladi.

Ikkisi o'rtasidagi muvozanatni ushlab turish har doim ham qo'limizdan kelavermaydi. Bu mashaqqat. Zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Ulug'bek Hamdam o'zining "Muvozanat" asarida ayni shu mavzuni ko'targan. Asardagi mavzu va muammolar asriy masalalardir. Har qachonga, har kimga, har davrga tegishli muammolar. Bosh qahramon Yusuf qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, oltin o'rtaliqni, ya'ni ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatni topa oladi. "Muvozanat" romani jami 110 sahifadan iborat bo'lib, 60 ga yaqin faol va nofaol bo'lgan epizodlar ishtirok etadi. Muallifning boshqa asarlarda ustuvorlik qilgani kabi bu asarda ham ijtimoiy-falsafiy mazmun yetakchilik qiladi. "Muvozanat" romani hozirgacha to'rt marta qayta nashr etildi". "Asarning g'oyasi, yangi davr ostonasida turgan inson kechmishlari, iztiroblari, taqdirlari xususida katta-kichik tadqiqotlar yaratildi. Asar haqidagi talqinlar nafaqat yurtimizda, balki uzoq Amerika adabiy jarayonida ham aks-sado berdi". Asarda o'zbek millatining sho'ro tuzumidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi burilishlari, kechmishlari haqqoniy, shafqatsiz real tasvirlarda Yusuf va uning do'stlari Said, Mirazim hayoti misolida yoritib berildi. Asarda ishtirok etgan har bir qahramon hayot tarzida iztiroblarga yuzlanib, muvozanatni saqlay olmay, ruhiyatlarida qalqishlar yuzaga kelganini guvohi bo'lamiz. Ijodkor roman voqealari tasvirida kontras usulidan unumli foydalanib, syujetni ana shunday qaramaqarshiliklar bilan boyitib boradi. Jumladan, shahar-qishloq", "boylik-qashshoqlik", "baxt-iztirob", "ma'naviyat-iqtisodiyot", "iyonnafs", "ko'ngillilik-ko'ngilsizlik" kabi. Roman bosh qahramoni Yusufning bolaligi, o'smirligi, kattaligi tasvirlari jarayonida syujet o'rni-o'rni bilan almashinib boraveradi. Romanning ekspozitsiyasi ota-bola suhbat bilan boshlanadi. Murg'ak qalbini hali hayot qora ranglari bilan zabit eta olmagan, olamga cheksiz zavq-u shavq bilan qaraydigan Yusufning otasiga bergen savoliga javobining o'zidayoq biz yashayotgan butun "Dunyoning muvozanati" xususida gap boradi. Asarda qo'llanilgan tog', quyosh ramziy ma'noda qo'llanilgan bo'lib, dunyoning muvozanati Allohnинг inoyati bilan bir maromda yurgizib qo'yilgani ramziy timsollar orqali tasvirlab beriladi. Agar marom buzilsa, yer yuzida qiyomat bo'lishi haqidagi gaplarni otasi Yusufga uqtirgandek bo'ladi. Asarning boshlanishida

Yusufning oppoq qor to'shalgan ko'chaga oshiqishi va unda iz qoldirish istagi bilan boshlanadi. Asarda tasvirlangan oppoq qor ramziy ma'noda g'uborlanmagan, oppoq ko'nglining timsoli bo'lib, keng ma'noda eski tuzumning qora illatlari bilan kirlanmagan, yosh avlodning sof qalbidagi orzular sifatida talqin qilinadi. Yusufning oppoq qor bilan qoplangan yo'llarda iz qoldirib, so'qmoq yo'l ochgan bola keljakda yangi yo'llar, yangi izalnishlar qilishga qodir yosh avlodning obrazi sifatida tasvirlanadi. Yusufning oldidan chiqqan bahaybat avtobusning o'zi iz slogan yo'lidan yurayotganidan xursand bo'lishi hamda bu holatning uzoqqa cho'zilmasligi: "Qorning tilimlab tashlangan bag'riga mo'ltirab qararkan, endi nima qilarini bilmasdi". Bu tasvirlarda qor va bahaybat avtobus muallifning asar g'oyasiga ramziy timsollar orqali qilgan ishorasidir, ya'ni qor – go'zallik va soflik; bahaybat avtobus esa vakuun holatiga tushib qolgan ijtimoiy tuzum; avtobus tilimlab tashlagan yo'l – ijtimoiy tuzumning inson ruhiyatiga yetkazgan zulmi va zug'umlarining ramzi sifatida tasvirlangan. Romanda yangi davr ostonasida turgan insonning qalbidagi mezoni ijtimoiy tuzum, davr va makon o'zgarishlari oqibatida ma'lum darajada buzilishi, saqlab turilgan muvozanatni qalqib ketishi keng ko'lamda yoritilgan. Bir qarashda oddiydek tuyilgan muvozanat tushunchasi asar davomida nihoyat katta mohiyat kasb etadi. U turmushning, hayotning inson ma'naviyatining har bir jabhasida o'zini namoyon eta boshlaydi. Asarda yozuvchi istiqlolga erishganimizdan keyingi davrni, muhitni yoritib berishga ayni tushunchani asosiy mezon sifatida asarning bosh g'oyasi, mavzusi bilan bog'laydi. Asar kompozitsiyasi va syujeti ham ana shu asosda tuziladi. Romanning bosh qahramoni Yusufning taqdiri, uning iztirobli izlanishlari turganini har bir kitobxon his qilishi tabiiy. Muallif qahramonlar taqdiri misolida o'sha davrdagi ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy muhitni yoritib berishga harakat qilgan. Buni biz romanda keltirilgan Yusufning qarashlarini olishimiz mumkin: "Axir kechagina rahbar lavozimida ishlab turgan chog'ida Said qanaqa edi, bugun ishdan ketib, uyda o'z qismati bilan yolg'iz qolganda qanday? Kecha uning yuzlaridan, gap so'zi-yu butun harakatlaridan kuch yog'ilardi. O'zini juda azim va arzigelik maqsadga bag'ishlagani hamda o'sha yo'lda dadil qadam bosayotgani sezilib turardi. Erishgan

muvaffaqiyatlari shu qadar zo'r ediki, esiga bir paytlardagi qadrdon do'sti Yusuf ham kelmasdi. Bugunchi? Bugun u hammasidan mosuvo etildi va ilgari g'ayratidan, ko'zida chaqnab turgan olovdan asar ham qolmadi: cho'kdi-ketdi. Demakki, u o'zini tutib turgan maqsad-u manfaatidan ko'pchilik bilan bir deb his qilish yuksakligidan judo bolib, ijtimoy-ma'naviy jihatdan yakkalanib qoldi [2]. Yusuf asarning boshidan to oxiriga qadar bir narsa uchun - oliv qadriyat uchun kurashdi. "U hayotda, atrofida nimalar yuz bergen va berishi mumkin bo'lgan bo'lmasin, baribir, insonni tutib turgan oliv qadriyat Muvozanatdan, unga erishish mashaqqatidan yuz o'girmadi. Ammo bu shunchaki muvozanat emas edi. Ushbu muvozanatning bir ildizi insonning o'zidan boshlanib, ikkinchisi muhaqqaq ravishda u yashayotgan jamiyatning bag'ridan suv ichadi. Bas, shunday ekan, istiqlol va yurt obodligi masalasi Yusuf nazarda tutgan va o'zi romanning boshidan oxirigacha intilgan ulug' Muvozanatning ajralmas halqasidir" [3]. Bu asarda eng ta'sirchan obraz - Amir mavjud o'tmish davrining o'ziga kishisi. Amirning tani va ruhi sog' bo'lishiga qaramasdan, u jinnixonaga tashlanadi. Amir sog'gom bo'lishiga qaramasdan, u o'zini jinnilikka soladi, jinnilarning qo'lida pati yulangan musicha qiyofasida ramziy ma'noda o'zini ko'radi. Negaki, o'zi yashayotgan davrdagi hayotda o'z ozrularini amalga oshira olmagach, qondirilmagan mayllar - o'z orzusidagi hayot, erishilmagan muhabbat - uning keyingi qismatida o'z izini qoldirdi. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, asarning nomi, undagi men anglagan asosiy mazmun esa jism va ruhdan iborat insonning ikki xil muvozanat - din va dunyo ishlari hamda moddiyat va ruhoniyaturo muvozanatni o'rnata olishi muhimliigi haqida. Butun olam muvozanat qonuni asosida turgan bo'lsa, asosini tashkil qilgan insonlar ham muvozanat tufayli barqarordir. Muvozanat buzilgan zahoti, jamiyatda ham, insonlar ruhiyatida ham o'zgarishlar yuz beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug'bek Hamdam. Muvozanat. – Tashkent: Yangi asr avlod, 2021.
2. Quronov Dilmurod. Adabiy jarayonda Mom sindromi. .www.ziyouz.uz.
- 3 Qo'chqorova Marhabo. Muvozanat romanida shartli ramzlar. Ilmiy maqola.